- kichik biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini va yashil transformatsiyaga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish;
- kichik biznesda yashil innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini baholash;
- kichik biznesdagi asosiy drayver va limitlovchi omillarni ekonometrik tahlil asosida shakllantirish;
- nazariy va empirik tadqiqotlar natijalari asosida ekologik biznes modellarini tahlil qilish va takomillashtirish metodologiyasini ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va kichik biznes tushunchalari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning uyg'unlashuvi zamonaviy iqtisodiy tizimda muhim ilmiy yo'nalishga aylangan. So'nggi yillarda ushbu masalalar jahon ilm-fanida ham alohida e'tibor markazida turibdi. Mavzuga oid xalqaro va mahalliy tadqiqotlarni tahlil etish orqali yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari, kichik biznesning ekologik barqarorlikdagi roli hamda ularni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar tizimli yoritilgan.

Xalqaro miqyosda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini chuqur o'rganib chiqqan S. Schaltegger (2002-yil) o'z tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotni "atmosfera, suv, yer va biologik resurslardan foydalanishda ekologik chegaralarni buzmaganda iqtisodiy o'sishga erishish" deb ta'riflaydi [13]. Uning ilmiy ishlari davlat siyosatining ahamiyatini chuqur yoritadi va xususan, subsidiyalari, soliq imtiyozlari hamda investitsiyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari orqali yashil sohalarida kichik biznesni rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

A.R. Anderson (Journal of Entrepreneurship) o'z tadqiqotlarida yashil iqtisodiy islohotlarning kichik biznes faoliyatiga ta'sirini tahlil qilib, bu jarayonda yuzaga keluvchi texnologik tafovutlar va moliyaviy resurslarga kirishdagi cheklavlarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi [11].



Bundan tashqari, BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) hamda Jahon banki tomonidan tayyorlangan hisobotlar va tahliliy hujjatlar kichik biznesning yashil iqtisodiyotga moslashuvdagi imkoniyatlar va istiqbollarni yoritadi [1]. Ularning xulosalariga ko'ra, kichik biznes subyektlari zamonaviy texnologiyalar, ishonchli ma'lumotlar va resurslar bilan ta'minlanganda, ekologik muhofaza tizimida yetakchi kuchga aylanish salohiyatiga ega.

O'zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyot va kichik biznes masalalariga bo'lgan ilmiy e'tibor yildan yilga ortib bormoqda. Jumladan, professorlar E.X. Maxmudov, M.Yu. Isoqov, I.T. Abdulkarimov va boshqa olimlarning tadqiqotlari ushbu yo'nalishda muhim nazariy va amaliy asoslarni shakllantirgan [4], [5].

E.X. Maxmudov, M.Yu. Isoqov o'z ilmiy ishlarida O'zbekistonda kichik biznesni barqaror iqtisodiy rivojlanish yo'liga olib chiqishning institutsional asoslarini tahlil etadi. Ularning fikricha, kichik biznes faoliyatini ekologik standartlarga moslashtirish uchun sertifikatlash tizimini takomillashtirish, davlat subsidiyalarini kengaytirish va ekologik menejment mexanizmlarini joriy etish zarur. Shuningdek, yashil iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik ta'limi va inson kapitalini rivojlantirishning ustuvorligi ta'kidlanadi. Ularning fikricha, ekologik xabardorlikni oshirish hamda yashil texnologiyalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biridir.

Shuningdek, I.T. Abdulkarimov o'z tahlillarida kichik biznes uchun moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, ekologik faoliyatni qo'llab-quvvatlash va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ushbu yo'nalishdagi davlat siyosatini kuchaytirish va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kengaytirish O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ekologik javobgarlikni samarali boshqarishni ta'minlash uchun uning ekologik faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan kompleks metodologiyani shakllantirish zarur. Ekologik javobgarlik konsepsiyasiga asoslanib, bunday metodologiyani ishlab chiqish korxonaning ekologik salohiyatini baholash, ekologik xarajatlar, atrof-muhitni muhofaza qilish choralarini amalga oshirish samaradorligi va umuman korxonaning ekologik tozalik darajasini aniqlashni hisobga olgan holda mumkin. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, sanoat korxonasining ekologik javobgarlik darajasini baholash jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirilishi kerak bo'lib, bu mavjud ekologik resurslarni, ya'ni javobgarlik tamoyillariga asoslangan holda atrof-muhitni boshqarish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish imkonini beruvchi resurslar majmuasini tahlil qilish va baholashdan boshlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi analitik, qiyosiy va tizimli yondashuvlarga asoslanadi. Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi statistika agentligi, iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda xalqaro tashkilotlarning (BMT, Jahon banki, UNEP) ochiq manbalaridagi rasmiy hisobotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, muallif tomonidan empirik kuzatuvlar va mavjud normativ hujjatlar tahlili orqali amaliy natijalar ishlab chiqilgan.

Shu bilan birga, tadqiqotda soha kesimidagi tahlilga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, xizmat ko'rsatish, qurilish va sanoat tarmoqlarida kichik biznesning yashil iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlari bosqichma-bosqich o'rganilgan. Bu yondashuv tadqiqotga komplekslik, amaliy ahamiyat va tizimli yondashuv xususiyatini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari asosida quyidagi sxema ishlab chiqildi (1-rasm):



1-rasm. Yashil iqtisodiyotning konseptual asoslari sxemasi



Ushbu sxema yashil iqtisodiyotning konseptual asosiy tarkibiy qismlari, ularning o'zaro bog'liqligi va barqaror rivojlanishga ta'sirini vizual tarzda aks ettiradi.

Ushbu ilmiy tahlil ekologik tadbirkorlikning rivojlanish mexanizmlarini aks ettiruvchi rangli blok-sxema asosida tayyorlandi. Diagrammada yashil iqtisodiyot strategik yo'nalishlari, texnologik omillar, innovatsion boshqaruv elementlari, moliyaviy mexanizmlar hamda makroiqtisodiy natijalarning o'zaro bog'liqligi tizimli tarzda ko'rsatib berilgan. Modelning markazida yashil iqtisodiyotning strategik konsepsiyasi turib, undan pastga yo'naltirilgan har bir quyi blok iqtisodiy, ekologik va innovatsion xulq-atvor shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Birinchi funksional qatlam — yashil iqtisodiyotning texnologik omillariga bag'ishlangan bo'lib, ekologik toza ishlab chiqarish, resurs tejankor texnologiyalar va chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu omillar atrof-muhitga zarar keltirmasdan iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ekologik toza ishlab chiqarish korxonalar tomonidan chiqindilarni kamaytirish, emissiyalarni nazorat qilish, energiya sarfini optimallashtirish kabi ko'rsatkichlar orqali baholanadi. Resurs tejankor texnologiyalar esa ishlab chiqarishning tannarxini pasaytiradi, mahsulotning global bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi va ekologik xavflarni kamaytiradi.

Ikkinchi qatlam — institutsional va innovatsion omillar majmuasi bo'lib, yashil investitsiyalar, yashil biznes modellarini shakllantirish va ekologik audit tizimi bilan o'lchanadi. Yashil moliyalashtirish mexanizmlarining (green bonds, grantlar, subsidiyalar) kengayishi ekologik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi umumiy salmog'ini oshiradi. Yangi innovatsion biznes modellarining paydo bo'lishi esa ekologik samaradorlik va iqtisodiy boylik yaratish o'rtasida optimal muvozanat shakllanishiga yordam beradi. Ekologik audit va sertifikatlash esa nafaqat mahsulot sifati, balki korxona boshqaruvining ekologik mas'uliyatini ham baholash imkonini beradi.

Uchinchi qatlam — barqaror resurs boshqaruvi va atrof-muhitni himoya qilish bo'lib, korxonalar faoliyatining strategik darajada to'g'ri tashkil etilishini nazarda tutadi. Ushbu blok ekologik boshqaruv, atrof-muhit monitoringi, tabiiy resurslardan ehtiyotkorona foydalanish va ekologik barqarorlik indeksleri orqali o'lchanadi. Modelning ushbu qismi ekologik tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotga integratsiyasini belgilaydi va strategik resurs siyosati bilan uzviy bog'liqdir. Korxonaning ushbu blokda faolligi uning uzoq muddatli barqaror rivojlanish dinamikasini shakllantiradi.

Modelning eng quyi qatlamida ekologik tadbirkorlikning makroiqtisodiy natijalari joylashgan. Bular — yangi ish o'rinlari yaratilishi, eksport salohiyatining oshishi, investitsion jozibadorlikning kuchayishi, YalMda yuqori qo'shilgan qiymat ulushining o'sishi va milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish sur'atlarining shakllanishidir. Shunday qilib, ekologik tadbirkorlik iqtisodiy tizimda nafaqat ekologik samara, balki iqtisodiy o'sishning yangi generatori sifatida ham maydonga chiqadi.

Umuman olganda, rangli blok-sxemada aks ettirilgan ekologik tadbirkorlik tizimi kompleks va ko'p komponentli bo'lib, unda yuqoridan pastga tomon harakatlanuvchi tizimli bog'liqlik mavjud. Strategik yondashuvlar texnologik va innovatsion mexanizmlar bilan mustahkamlanib, oxir-oqibat makroiqtisodiy darajadagi barqaror rivojlanish natijalariga olib keladi. Model ekologik tadbirkorlikni faqat korxona darajasida emas, balki milliy iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi.

“Yashil” biznes mafkurasi iqtisodiy taraqqiyot va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan zamonaviy konsepsiya sifatida tobora muhim o'rin egallamoqda. Bu yondashuvga ko'ra, iqtisodiy o'sish atrof-muhitga zarar yetkazmasdan amalga oshirilishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsiz texnologik yechimlarni joriy etish bilan uyg'un ravishda yuritilishi kerak. Yashil biznes faoliyatining mohiyati shundaki, korxonalar iqtisodiy foyda ko'rish bilan bir vaqtda biosferaga ta'sirni minimallashtirishi lozim.

Shu bois, sanoat yo'nalishlarini “ko'kalamzorlashtirish”, ya'ni ekologik samarador texnologiyalarga o'tkazish va resurs tejovchi innovatsiyalarni keng joriy etish ekologik muammolarning asosiy yechimlaridan biriga aylandi. Mavjud global ekologik tendensiyalar (iqlim o'zgarishi, resurs tanqisligi, atrof-muhit ifloslanishi) shunga dalolat qiladiki, sanoatning kelgusi strategiyasi faqat iqtisodiy samaradorlik emas, balki ekologik mas'uliyat tamoyillariga asoslanishi zarur.

Bu masala xalqaro va mintaqaviy darajadagi yetakchi strategik hujjatlarda ham o'z ifodasini topgan. Jumladan, BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)”, Yevropa Ittifoqining “Yashil kelishuv” dasturi, Osiyo taraqqiyot banki va Jahon bankining ekologik strategiyalari sanoat sohalarini yashil rivojlanishga o'tkazishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Ushbu hujjatlarda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va uglerod izini qisqartirish kabi yo'nalishlar aniq belgilangan.

Ishlab chiqarish jarayonlarini ko'kalamzorlashtirish kompleks yondashuvni talab qiluvchi tizimli jarayon bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik omillarning bir-biri bilan uzviy bog'liq holda ishlashini taqozo etadi. Bu jarayonning ijtimoiy asoslari, avvalo, jamiyatning ekologik madaniyat darajasi, aholining ekologik ehtiyojlar haqidagi tushunchalari va shaxsiy rag'batlarining shakllanishi bilan belgilanadi. Ya'ni, ekologik ehtiyojlar ijtimoiy talab sifatida namoyon bo'lmaguncha, ishlab chiqarishni chuqur



ko'kalamzorlashtirish amaliyoti keng ommalasha olmaydi. Shu jihatdan, jamiyatda ekologik xavfsizlik, tabiatni muhofaza qilish va sog'lom muhitni saqlashga oid ijtimoiy talabning ortishi sanoat sohasidagi yangilanishlarga kuchli turtki bo'ladi.

Ishlab chiqarishni ko'kalamzorlashtirishning iqtisodiy asoslari esa samaradorlik va rentabellik tamoyillari bilan uzviy bog'liq. Bu yerda asosiy vazifa korxonalar uchun ekologik yechimlarni joriy qilishning moliyaviy jihatdan maqbulligini ta'minlashdir. Agar iqtisodiy muhitda davlat tomonidan rag'batlantiruvchi mexanizmlar (soliq imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar), investitsiya platformalari, yashil kreditlar va resurs tejovchi texnologiyalarni moliyalashtirishga qaratilgan institutlar mavjud bo'lsa, sanoatni ko'kalamzorlashtirish jarayonlari korxonalar uchun iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydigan faoliyatga aylanadi. Boshqacha aytganda, ekologik innovatsiyalarni joriy qilish rentabellikni ta'minlasa, korxonalar ushbu yo'nalishga o'z ixtiyori bilan kirib boradi.

Iqtisodiy tizimdagi qulay sharoitlar nafaqat ekologik infratuzilma rivojini tezlashtiradi, balki raqobat ustunliklarini yaratish orqali korxonalarning bozordagi barqarorligini ham mustahkamlaydi. Bu jarayonda tashkiliy mexanizmlar ham muhim o'rin tutadi: korxonalarda ekologik menejment tizimining joriy etilishi, energiya va resurs monitoringi, chiqindilarni qayta ishlashni tashkil qilish, logistik zanjirlarni "yashil" modelga o'tkazish kabi yondashuvlar ko'kalamzorlashtirishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, ishlab chiqarishni ko'kalamzorlashtirishni amalga oshirish faqatgina ekologik talablarni bajarish emas, balki ijtimoiy ehtiyojlar, iqtisodiy manfaatlar va texnologik yangilanishlar o'rtasidagi muvozanatni shakllantirishdir. Jamiyatning ekologik ongi o'sgani sari, korxonalar uchun ekologik yechimlarni joriy qilish faqat majburiyat emas, balki yangi imkoniyatlar, raqobat ustunligi va uzoq muddatli barqaror rivojlanish poydevoriga aylanib boradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishga doir talablar ortgani sari ishlab chiqarish tizimlarida ham tegishli texnologik resurslar bazasini shakllantirish zarurati yuzaga keladi. Texnologik resurslarning yetarli darajada jamlanishi korxonaning ekologik ehtiyojlarni qondirish bo'yicha amaliy imkoniyatlarini kengaytiruvchi va ekologik modernizatsiya uchun zarur bo'lgan asosiy texnologik shartlar majmuini vujudga keltiradi. Bunday texnologik shartlar ayni paytda ekologik loyihalarning amaliy jihatdan bajarilishi, texnik-iqtisodiy jihatdan asoslangan (feasibility) bo'lishi uchun muhim shartlar sifatida namoyon bo'ladi.

Ekologik ko'kalamzorlashtirish jarayonining amalga oshishi uchun mavjud texnologik resurslar bilan bir qatorda iqtisodiy va texnik shartlar ham zarur hisoblanadi. Bunda iqtisodiy va texnik omillar boshqa barcha shartlarni to'ldirib turuvchi "yetarililik" mezonlarini tashkil qiladi. Iqtisodiy omillar ekologik loyihalar uchun mablag' topish, sarmoyani qaytarish imkoniyatlari, xarajatlarni uzoq muddatda qisqartirish va resurs tejash orqali samaradorlikka erishishni anglatasa, texnik omillar korxonaning texnologik quvvati, uskunalarining zamonaviyligi, resurs sikllarini boshqarish imkoniyatlari va ekologik tozalash texnologiyalarining mavjudligi bilan bog'liq.

Jadvalda ko'rsatilganidek, inson sivilizatsiyasi taraqqiyoti davomida ekologik ong shakllanishi to'rt bosqichda rivojlanib borgan. Bu bosqichlar atrof-muhitning holati, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik xavf-xatarlarning ortib borishi bilan bog'liq murakkab jarayonlarni aks ettiradi. Ekologik ongning rivojlanishi tufayli inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'siri ilmiy nuqtayi nazardan chuqurroq tahlil qilina boshlandi va ko'kalamzorlashtirish masalasi global miqyosda muhokama qilinadigan dolzarb mavzulardan biriga aylandi.

Ekologik halokatli ta'sir kuchining oshganini anglash va uning inson salomatligi, biomuhit, atmosfera, gidrosfera va biologik xilma-xillikka yetkazayotgan zararini ilmiy asosda baholashdan so'ng ko'kalamzorlashtirish, ya'ni ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining ekologik modernizatsiyasiga bo'lgan ehtiyoj keskin ortdi. Inson faoliyati bilan bog'liq turli tarmoqlardagi ekologik tahdidlarning kuchayishi ekologik xavflarni yagona tizim asosida baholash zaruratini tug'dirdi. Shu asosda "integral ekodestruktiv ta'sir" atamasi ilmiy muomalaga kiritildi.

Integral ekodestruktiv ta'sir — bu ishlab chiqarish, iste'mol, transport, infratuzilma va boshqa texnologik jarayonlarning inson organizmiga, tabiiy ekotizimlarga, resurslar tiklanish sikllariga va biologik muhitga ko'rsatadigan umumiy salbiy ta'sirini yagona kompleks indikatorlar asosida baholashni anglatadi. Bu indikator ekologik xavflarning ko'lamini, ularning dinamikasini, tabiiy tizimlarning barqarorligini va inson salomatligi uchun xavf darajasini aniqlashda muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi.

Integral ekodestruktiv ta'sir tushunchasi joriy etilgandan so'ng sanoat sohalarida ekologik monitoringning ilmiy-amaliy tizimlari takomillashdi, ishlab chiqarishdagi "iflos chiqindilar — tabiiy resurslar — inson salomatligi" o'rtasidagi bog'liqlik yanada oydinlashdi. Natijada ekologik siyosatning ustuvor yo'nalishlari qayta ko'rib chiqilib, resurs tejamkor texnologiyalar, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash, tozalash inshootlari va aylanma iqtisodiyot (circular economy) modellarini joriy etishga bo'lgan ehtiyoj keskin ortdi.

Shu ma'noda, texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy shartlarning uyg'un tarzda ishlashi ishlab chiqarishni ko'kalamzorlashtirishning ham nazariy, ham amaliy poydevorini tashkil etadi. Korxonalar iqtisodiy jihatdan foyda olish bilan birga tabiiy muhitga yetkaziladigan zararni minimal darajaga tushirishi, texnologiyalarni muntazam yangilab borishi va jamiyatning ekologik ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanishi lozim.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida quyidagi xulosalarga xosil bo'ldi:

Har xil darajadagi ta'sirlar — mahalliy, mintaqaviy va global darajada — o'zining salbiy oqibatlari bilan ekologik barqarorlikka tahdid soladi. Masalan,

- atrof-muhitni ifloslantirishga olib keluvchi sanoat jarayonlari,
- tabiiy resurslarning me'yordan ortiq iste'mol qilinishi,
- inson faoliyatining tabiiy ekotizimlar bilan nomutanosibligi,
- ekologik nazorat va monitoring tizimlarining yetarli emasligi
- ekologik muvozanatning izdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, zamonaviy ishlab chiqarish faoliyatidagi ekologik muammolarning kelib chiqishi iqtisodiy manfaatlarning ustuvorligi, ekologik talablarni e'tiborsiz qoldirish, resurslardan samarasiz foydalanish va ekologik boshqaruv tizimlarining institutsional zaifligi bilan chambarchas bog'liq.

Kichik biznesning amaldagi faoliyat mexanizmini o'rganish shuni ko'rsatadiki, uning iqtisodiy va ekologik manfaatlarini jamiyatning keng qamrovli ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish uchun boshqaruv va tashkiliy yondashuvlarni tubdan takomillashtirish zarur. Bugungi kunda kichik biznes faqat foyda olish va iqtisodiy o'sish borasida emas, balki ekologik mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga majbur qiladigan shart-sharoitlarda faoliyat yuritmoqda. Shu boisdan ekologik va iqtisodiy samaradorlikni bir vaqtda ta'minlaydigan, bozor mexanizmlari bilan uyg'unlashgan va jamiyat manfaatlariga mos keladigan boshqaruv modellari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy atrof-muhit siyosatidagi yangi tendensiyalar ekologik tovarlar, xizmatlar va ishlarning to'liq qiymat zanjiri orqali shakllanishiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Ekologik tovarlar bozorining kengayishi energiya tejankor uskunalar, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari, suvni tejash vositalari, ekotozalash inshootlari va boshqa innovatsion mahsulotlar orqali amalga oshadi. Bu esa kichik biznes uchun yangi segmentlarni, yangi iste'molchi talabini va yuqori qo'shimcha qiymatga ega ishlab chiqarish yo'nalishlarini yaratadi. Demak, ekologik tovarlar bozorini rivojlantirish kichik biznesni yangi darajadagi raqobatga tayyorlaydi va milliy iqtisodiyotda barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Kichik biznesni ekologik va iqtisodiy jihatdan tartibga solish mexanizmi, avvalo, davlat boshqaruv organlarining tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatadigan ta'siriga tayanadi. Bunda davlat tomonidan belgilangan ekologik va iqtisodiy maqsadlarga mos keladigan xulq-atvorni rag'batlantirish, turli normativ va iqtisodiy instrumentlar orqali korxonalarni barqaror ishlashga yo'naltirish muhimdir. Shu bilan birga, davlat ekologik samaradorlikni oshirish bo'yicha belgilangan talablarni bajarish darajasi uchun mas'uliyatning muayyan qismini o'z zimmasiga oladi, masalan:

- ekologik standartlarni joriy etish;
- soliq imtiyozlari va grantlar orqali rag'batlantirish;
- ekologik audit, monitoring va nazorat tizimlarini takomillashtirish;
- kichik biznes uchun ekologik texnika va texnologiyalarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Bunday mexanizmlar kichik biznesni ekologik barqaror yo'lga o'tkazish bilan birga, ularning iqtisodiy oqilona qarorlar qabul qilishini tezlashtiradi va bozordagi ekologik talablarga moslashishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, ekologik va iqtisodiy tartibga solish mexanizmlari kichik biznesni rivojlantirishda muhim rol o'ynovchi kompleks tizimdir. U jamiyat manfaatlari, bozor talablari va atrof-muhitni muhofaza qilish vazifalarini bir nuqtada birlashtirib, kichik korxonalarda barqaror, samarali va ekologik mas'uliyatli faoliyat modellari shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik jihatdan mas'uliyatli tadbirkorlik tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, atrof-muhitni muhofaza qilish mexanizmlarini kuchaytiradi va umumiy ekologik barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar ekologik faoliyatni kichik biznesning ajralmas funksiyalaridan biri sifatida qayd etib, ekologik yo'naltirilgan kichik biznes sektori iqtisodiyotning umumiy ekologiklashuvi nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega ekanini isbotlaydi.

Bu, eng avvalo, quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi korxonalarga taalluqli:

- ekologik uskunalar va o'lchov asboblari ishlab chiqaruvchi korxonalar,
- ikkilamchi resurslarni qayta ishlovchi va chiqindilarni qayta ishlaydigan subyektlar,
- ekologik toza va resurs tejankor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilar,
- atrof-muhit muhofazasiga oid xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar.

Bu tarmoqlar iqtisodiyotda aylanma resurs sikllarini shakllantiradi, chiqindilarni kamaytiradi va ekologik innovatsiyalarning joriy etilishiga keng imkoniyatlar yaratadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNEP (2010). The Green Economy Initiative//. –: <http://www.unep.org/greeneconomy/>, accessed 2010-07-06
2. Навстречу «зеленой» экономике России (обзор) //: <http://sustainabledevelopment.ru/index.php?cnt=188>
3. Ўзбекистон Республикасининг «Хусусий корхоналар тўғрисида»ги Қонуни. Қонун ва қарорлар. –Т.: Ўзбекистон, 2011.
4. Maxmudov E.X., Isoqov M.Yu. Biznes - rejalashtirish. O'quv qo'llanma. –Т.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, – 160 b.
5. Абдукаримов И.Т. ва бошқалар. Корхона иқтисодий салоҳияти таҳлили. – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2010, – 256 б.
6. Березин И. Маркетинговый анализ, - М.: "МГУ" 2004. 127 – стр.
7. Портер М. Конкуренция. /Пер. с англ. - М.: Издательский дом «Вильямс», 2002. С. 176.
8. The Global Competitiveness Report 2009-2010World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2009. P. 13.
9. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы IV-го Форума экономистов / отв.ред. М.П. Нарзикулов. –Ташкент: BaktriaPress, 2012. С. 30-31.
10. Isaak, R. (1997). Green logic: Ecopreneurship, theory and ethics. Greenleaf Publishing.;
11. Anderson, A.R. (1999). Entrepreneurship and the green economy: An institutional perspective. Journal of Entrepreneurship, 8(1), 1–22.;
12. Pastakia, A. (1998). Grassroots ecopreneurs: Change agents for a sustainable society. Journal of Organizational Change Management, 11(2), 157–173.;
13. Schaltegger, S. (2002). A framework for ecopreneurship: Leading bioneers and environmental managers to sustainable success. Greener Management International, 38, 45–58.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>